

**YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA
QORAQALPOQ XALQINING MILLIY QADRIYATLARI VA URF-
ODATLARINING AHAMIYATI**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston milliy universiteti

Psixologiya mutaxassisligi

2-kurs magistrant

Ospanbaeva Venera Allayarovna

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash har qanday jamiyatda muhim ijtimoiy-tarbiyaviy jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon yoshlarning oilaviy munosabatlarga nisbatan mas’uliytli munosabatni shakllantirish, oila qadriyatlarini anglash hamda turmush jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va psixologik vazifalarga tayyor bo‘lishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham, qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatlari yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoq xalqining an’anaviy madaniyatida oila muqaddas ijtimoiy institute sifatida e’tirof etiladi. Xalq urf-odatlari va qadriyatlarida o‘zaro hurmat, kattalarga ehtirom, kichiklarga g’amxo‘rlik, oila a‘zolari o‘rtasida hamjihatlik kabi axloqiy me‘yorlar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu qadriyatlar yoshlarga bolalikdan boshlab oilaviy tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Natijada yoshlar kelajakdagi oilaviy hayotga nafaqat ijtimoiy-psixologik, balki, ma’naviy-axloqiy jihatdan ham tayyorlab brilgan.

Qoraqalpoq xalqida nikoh bilan bog‘liq marosimlar va urfodatlar ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining nikoh dasturlari — bu avloddan avlodga o‘tib kelayotgan

an'analar to'plami hisoblanadi. Bugungi kunda ular internet, xorijga migratsiya va yangi iqtisodiy sharoitlar ta'sirida o'zgarib bormoqda, ammo har bir marosim yoshlarning hayotida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, nikoh an'alarining zamonaviy ko'rinishini va ularning psixologik mazmunini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Nikoh deganda turmush qurish jarayonidagi marosimlar majmui tushuniladi: kelin tanlash, kelishuv (qudalik), sirg'a solish marosimi, qiz uzatish, nikoh o'tkazish, bet ochish va keyingi ijtimoiy-psixologik maslahatlashuv va muammolarni hal etish jarayonlari nazarda tutiladi.

Qoraqalpoq nikoh marosimlari insonning psixikasiga chuqur singib ketgan jamoaviylik (kollektivistik) qadriyatlarni ko'rsatadi: bolalikdan boshlab "kelinlik saboqlari" orqali qizlarga sabr-toqat, mehribonlik hamda qarindoshlik ierarxiasiga hurmat singdiriladi. Natijada kelin yangi oilaga moslashish uchun emosional tayyorgarlikka ega bo'ladi. Qudalik bosqichida esa faqat ikki yoshning emosional uyg'unligi emas, balki ikki tamon oilalarning obro'-e'tibori mustahkamlanadi va "jamoat obro'si" hissi mustahkamlanadi.

Oilaviy hayotga tayyorlashda urf-odatlar, an'analar katta rol o'ynaydi. Ular orasida "To'y boshlash" (to'yning boshlanishida aytiladigan qo'shiq), "hawjar" (qizning xohishini hisobga olmasdan uzatayotgani uchun ota-onasiga, o'zining taqdiridan noligan qizning uyidan uzatilib chiqayotganda aytiladigan xayrlashuv qo'shig'i) kabi urf-odat qo'shiqlarini aytib o'tish mumkin. "Betashar" an'anasi ham qoraqalpoq millatiga xos urf-odatlardan biri, bunda uzatilib kelgan qizga kelin bo'lib tushayotgan qishlog'idagi odamlar, qarindosh-urug'lari, ota-onasi, qaynog'a-qaynsingillari, kelin va qayinlari

tanishtiriladi. Shu bilan birga kelinga o‘zini qanday tutishi kerakligi, nimaga e’tibor qaratishi zarurligi nasihat tarzida aytiladi.¹

“Qiz uzatiw” vaqtida kelinning oq ro‘molda otaning eshigidan chiqib, kuyovning uyiga “o’rt-suw-yer” ramzlari orqali qadimiy dastur bo’yicha qadam qo’yishi Van Gennep tasvirlagan liminal fazadagi psixologik o‘tishni – ya’ni eski statusdan ajralib, yangi hayotga tayyorlanishni jonli tasdiqlaydi. “Betashar” marosimida qo‘shiqar va iring‘aqlar kelin-kuyov va qarindoshlarda kollektiv katarsis paydo qilib, yangi jamiyatga tanishishga tasdiq beradi. Oxirida esa ot minish va kurash kabi sport musobaqalari oilani barpo etish voqeasini jamoat quvonchiga aylantiradi. Kelin yangi xonadoniga kelgan vaqtda shartli ravishda “Betashar” aytiladi. Bu an’anada ham chuqur psixologik ma’no bor, bu urf-odat o‘zbek xalqida “Kelin salom” (kelinning o‘zining yangi oilasidagilarga, qarindosh-urug‘lari bilan qo‘ni-qo‘shnilariga salom berishi) deb ataladi. Mazmuni va yo‘nalishi jihatidan bu ikki urf-odat bir-biriga yaqin, qoraqalpoq xalqidagi “Betashar”da ham, o‘zbeklardagi “Kelin salom”da ham kelinga kuyovning yaqinlarining kim ekanligini tanishtirish maqsadida amalga oshiriladi. Bularning farqli tomoni qoraqalpoqlarda “Betashar” maxsus baxshilar, betasharchilar (asosan, erkaklar) tomonidan ijro etilsa, o‘zbeklarda “Kelin salom” ayollar tomonidan ijro etilgan. Shunday qilib, har bir marosim shaxsga emas, balki jamiyat o‘zaro bog‘lanishlarining psixologik talablarini – xavfsizlik, qabul qilish va statusni tasdiqlashni qanoatlantiruvchi ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.²

“Hawjar” qiz uzatilishi vaqtida aytiladigan urf-odat qo‘shiqlarining bir turi. “Hawjar” an’ana bo’yicha uzatiladigan qizning tarafi bir tomon bo‘lib, kuyov taraf ikkinchi tomon bo‘lib aytishadi. “Hawjar”da qizning ichki g‘am-

¹ Палымбетов К.С., Орымбетова Л.Б.. Особенности каракалпакских народных обрядовых песен. 2016. № 9 (22). – С. 55.

² Suletbaeva Ella Serikbaevna – Qaraqalpaq jaslarin sha’araqlıq turmisqa tayarlawdın social-psixologiyalıq mashqalaları hám olardı sheshiw jolları. Monografiya. No’kis-2024, 40-41 b.

ilmiy –amaliy anjuman

tashvishi, o‘z uyidan ketib borayotganligi, boshqa uyga borganda ahvoli qanday bo‘lishi haqida tashvishi, taxminlari aytiladi. Unga javoban kuyov tomonidagi yigitlar qizga tasalli berib, hammasi yaxshi bo‘ladi, baxt oldinda, qayg‘urib-g‘amgin bo‘lma deb nasihat beradi. Buning natijasida unda pozitiv ustanovkani shakllantirish uchun hazil-mutoyibalar bilan kelinga psixoterapevtik ta‘sir o‘tkazib, uning yangi sharoitga, yangi oila a‘zolariga tezroq moslashishiga (ko‘nikishiga) ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turganidek, milliy urf-odat, an‘analarda chuqur ma‘no, donishmandlik yotadi. Ular yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Bizning fikrimizcha, qoraqalpoq xalqining milliy urf-odatlari, an‘analarining psixologik interpretatsiyasi dissertatsion tadqiqotning alohida mavzusi bo‘lishi kerak, chunki, psixologiya fani, ayniqsa, etnopsixologiya uning amaliy ahamiyatini, etno-psixologik xilma-xilligini, etnogenezini ko‘rsatishi, ilmiy jihatdan tushuntirishi, ularning qimmatini ilmiy jihatdan asoslab berishi va zamonaviy turmush tarzini hisobga olib qoraqalpog‘iston xalqining manfaati uchun, oila instituti va shaxsning manfaatini saqlab qolishi va samarali foydalanishi kerak. Bizning ajdodlarimiz asrlar davomida samarali foydalangan qadriyatlarni unutib bo‘lmaydi. Mamlakat va yurtning boyligini faqat tabiiy boyliklar, bankdagi kapitallar, milliardlar soni bilan o‘lchashning hojati yo‘q, aksincha, xalqning ma‘naviy boyligi, intellektual darajasi bilan o‘lchash kerak, bunda eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri milliy urf-odatlar, an‘analar, chunki bunda hech qanday pul birligi bilan baholab bo‘lmaydigan, asrlar davomida ishonchlilikka, samaradorlikka, tabiiylikka, insonparvarlik va chidamlilikka, hayotga layoqatlilikka sinovdan o‘tgan xalqning teran donishmandligi bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayimbetov Q. “Xalq danaligi”. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1988.

ilmiy –amaliy anjuman

2. Палымбетов К.С., Орымбетова Л.Б.. Особенности каракалпакских народных обрядовых песен. 2016. № 9 (22). – С. 55.
3. Утепбергенов М. Социальные и этнопсихологические проблемы каракалпакской семьи. Дисс. ... д-ра психол. наук. – Тошкент, 2019.
4. Suletbaeva Ella Serikbaevna – Qaraqalpaq jasların shańaraqlıq turmısqa tayarlawdıń social-psixologiyalıq mashqalaları hám olardı sheshiw jolları. Monografiya. No'kis-2024, 40-41 b.
5. https://books.google.com/books/about/Social_Learning_Theory.